

**YOSHLAR – GLOBAL TINCHLIKNING KALITI: MOJAROLAR,
DIPLOMATIYA VA UMID O'RTASIDA***Inayatova Muhtaram**Turan International university talabasi*

Annotatsiya Ushbu maqola bugungi zamонавиј global muammolar – urushlar, migratsiya, madaniyatlararo ziddiyatlar, iqlim o‘zgarishi va dezinformatsiya – haqida chuqur tahlil beradi. Maqolada tinchlikni ta’minlashda yoshlarning, ayniqsa, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va konfliktologiya sohalarida tahsil olayotgan talabalarning roli haqida aniq misollar bilan fikr yuritiladi. Maqola xalqaro huquq, diplomatik protokollar, zamонавиј kommunikatsiya va ko‘p tomonlama muloqot asosida yechimlar taklif etadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar va tinchlik, global mojarolar, diplomatiya, xalqaro munosabatlar, konfliktologiya, madaniyatlararo muloqot, iqlim o‘zgarishi, migratsiya, dezinformatsiya, xalqaro huquq, yosh diplomatlar, tinchlik qurilishi

Annotation This article provides an in – depth analysis of today's modern global challenges – Wars, migration, intercultural conflict, climate change, and disinformation -. The article reflects on the role of young people in promoting peace, especially students studying in the fields of international relations, diplomacy and Conflict Studies, with specific examples. The article offers solutions based on international law, diplomatic protocols, modern communication and multilateral dialogue.

Keywords: youth and peace, global conflicts, diplomacy, international relations, conflict, intercultural dialogue, climate change, migration, disinformation, international law, Young Diplomats, peace building

Аннотация В этой статье содержится подробный анализ современных глобальных проблем – войн, миграции, межкультурных конфликтов, изменения климата и дезинформации. В статье на конкретных



примерах рассматривается роль молодежи в обеспечении мира, особенно студентов, обучающихся в области международных отношений, дипломатии и конфликтологии. В статье предлагаются решения, основанные на международном праве, дипломатических протоколах, современных коммуникациях и многостороннем диалоге.

Ключевые слова: молодежь и мир, глобальные конфликты, дипломатия, международные отношения, конфликтология, межкультурный диалог, изменение климата, миграция, дезинформация, международное право, молодые дипломаты, миростроительство

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo tarixiy jihatdan eng keskin sinovlarga duch kelmoqda. Ukraina va Rossiya o‘rtasidagi urush, Falastin-Isroil mojarosi, Myanmada yuz berayotgan harbiy to‘ntarish, Afg‘onistonidagi siyosiy beqarorlik – bularning barchasi insoniyatning umumiyligini tinchligiga xavf solmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning, ayniqsa, oliy ta’limda xalqaro yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar va yosh mutaxassislarining mas’uliyati yanada ortmoqda. Ular nafaqat kelajak diplomati, balki bugunning ijtimoiy faoli sifatida harakat qilishlari kerak.

Urush bolalarning orzusini o‘g‘irlasa, tinchlik uni qaytaradi UNICEFning 2022-yilgi hisobotiga ko‘ra, Ukraina urushi natijasida 7 milliondan ortiq bola o‘z uyini tashlab chiqdi. Bu nafaqat ularning jismoniy xavfsizligiga, balki psixologik salomatligiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunga o‘xshash vaziyatlar Suriyada, Yaman va Afg‘onistonda ham kuzatilmoqda. Tinchlik bu shunchaki qurolli to‘qnashuvlarning to‘xtashi emas, balki insonning o‘z hayotini mustaqil qurish, orzu qilish va ma’naviy rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishidir.

Yosh diplomatlar – kechagi talabalar bugungi kunda xalqaro siyosatdagi ishtirokchilarning yoshi tobora yosharib bormoqda. Masalan, Keniya va Somali o‘rtasidagi dengiz delimitatsiyasiga oid masala 2021-yilda Xalqaro sudda hal qilindi. Keniya delegatsiyasida ishtirok etgan 28 yoshli ayol diplomat universitetni 4 yil avval tamomlagan edi. U xalqaro huquq va diplomatik protokollarni mukammal bilgan holda xalqini xalqaro maydonda himoya qildi. Bu tajriba



yoshlarning tayyorlangan taqdirda qanchalik katta siyosiy o‘zgarishlarga sababchi bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Men hozirda Malayziyada joylashgan UTHM universitetida tahlil olyapman. Bu yerda Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Turkiya, Arab davlatlari, Filippin kabi ko‘plab davlatlardan kelgan talabalar bilan birga o‘qiyman. Har bir darsda, har bir muloqotda biz bir-birimizdan o‘rganamiz. Men konfliktologiya fanidan o‘rgangan “pozitiv tinchlik” va “ko‘rinmas zo‘ravonlik” tushunchalarini amaliy hayotda sinab ko‘ryapman. Masalan, fikrlar xilma-xilligi, e’tiqod erkinligi, ayollarning o‘rni, til va madaniyatga hurmat masalalarida madaniy diplomatiya muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlar qanday hissa qo‘sha oladi?

Xalqaro tinchlik forumlarida, BMT Model konferensiylarida (Model UN) ishtirok etish

Ijtimoiy tarmoqlarda tinchlik, inson huquqlari, inklyuzivlik va adolat haqida kontentlar yaratish

Mahalliy va xalqaro NNTlar bilan hamkorlikda volontyorlik qilish (masalan, UNESCO Peace Builders, Amnesty International)

Diplomatik muloqot va notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali tinch muloqot madaniyatini targ‘ib qilish

Onlayn va oflays ravishda "Peace Project" lar, mediatsiya klublari tashkil etish

Xulosa

Dunyo tobora murakkablashib bormoqda. Ammo murakkablikni boshqarish uchun biz – yoshlar – bilimli, faol va fidoyi bo‘lishimiz zarur. Tinchlik bu faqat davlatlararo kelishuv emas, balki har bir insonning ongli harakatidir. Har bir yoshlik tashabbusi, har bir tinchlikka qaratilgan g‘oya dunyoni bir qadam bo‘lsa-da yaxshilikka olib boradi. Bugungi talaba – ertangi diplomat, kelajak tinchlik quruvchisidir.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

UNICEF. (2022). Impact of the Ukraine War on Children. www.unicef.org



ICJ. (2021). Maritime Delimitation in the Indian Ocean (Somalia v. Kenya).

www.icj-cij.org

UNESCO Peace Builders Program. (2023). www.unesco.org

Galtung, J. (1969). Violence, Peace, and Peace Research. *Journal of Peace Research*, 6(3), 167-191.

Oxford Handbook of Conflict Resolution in International Relations (2013)

United Nations Youth Envoy – Peacebuilding and Youth Participation.

www.un.org/youthenvoy